



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 27-yanvar

31-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 11-yanvardagi PF–1-son Farmoni ijrosi haqida” 26-6-0-Q/25 –sonli qarori to‘g‘risida**

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 11-yanvardagi PF–1-son Farmoni ijrosi haqida” 26-6-0-Q/25 –sonli qarorijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 23-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2025-yil 11-yanvardagi PF–1-son Farmoni ijrosi haqida” 26-6-0-Q/25–sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–1-son Farmoni bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi;

Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga 2025-2026-yillarda ajratilishi nazarda tutilgan mablag‘ning bir qismini 2023-yil yoz mavsumida dam olgan bolalarning yo‘llanma harajatlarini hamda 2024-yil yoz mavsumiga 59 ta oromgohni tayyorlash maqsadida olib borilgan ta‘mirlash ishlari bo‘yicha vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun yo‘naltirishga ruxsat berishi;

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazilganligi munosabati bilan qonunchilik hujjatlarini o‘zaro muvofiqlashtirishi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov hamda tuman hokimning o‘rinbosari–oila va xotin-qizlar bo‘limi v.b.b boshlig‘i Yo.Mamitaliyeva zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**